

“DAVLAT RO‘YXATIDAN

O‘TKAZILDI”

Toshkent shahar

Adliya boshqarmasida

2017-yil “ ” da

Nº

“TASDIQLANDI”

Toshkent shahar “SHAROIT PLYUS”

nogironlar jamoat birlashmasi

2017-yil 26-fevral

navbatdan tashqari Kengash yig‘ilishi

qarori bilan

**TOSHKENT SHAHAR “SHAROIT PLYUS”
NOGIRONLAR JAMOAT BIRLASHMASI
RAMZINING**

N I Z O M I

Toshkent-2017

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Toshkent shahar “SHAROIT PLYUS” nogironlar jamoat birlashmasi (keyingi o‘rinlarda – Birlashma deb yuritiladi) ramziy belgisi, uning rahbar organi – Kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan, ma’qullangan va ovoz berish yo‘li bilan uning qaroriga asosan tasdiqlangan.

1.2. Ramziy belgidan foydalanishga oid masalalar faqat Birlashmaning rahbar organlari tomonidan hal etiladi.

II. ASOSIY MAQSAD

2.1. Birlashmaning ramziy belgisi notijorat maqsadlarda ishlatish uchun ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

2.2. Ramz rangli va oq-qora turlarda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (1- ilova), shuningdek negativ tasvirdan foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

2.3. Ramziy belgi Birlashmaning ramzi (emblemasi) sifatida, uning rasmiy hujjatlarida ishlatilishi uchun mo‘ljallangan.

III. RAMZNING TAVSIFI

3.1. Birlashmaning ramzi rasm va tashkilot nomidan iborat.

3.2. Birlashmaning ramzi turli toifadagi imkoniyati cheklangan shaxslar uchun zarur shart-sharoitlarni ifodalaydigan ko‘k, yashil, sariq, to‘q sariq va jamiyatni ifodalaydigan qizil rangdagi beshta “pazl” (mozaykalardan) iborat. Ushbu pazllar bir biriga qo‘shiladi va doira shaklini vujudga keltirib ichida katta xarflar bilan Birlashmaning qisqacha nomi “SHAROIT PLYUS” deb o‘zbek tili lotin alifbosida to‘q ko‘k rangda yoziladi.

Ko‘k pazl ichida kar-soqov va zaif eshituvchi imkoniyati cheklangan shaxslar jamiyatga qo‘shilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit – o‘zbek imo-ishora tili tasvirlangan. Yashil pazl ichida jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar jamiyatga qo‘shilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit – nogironlar aravachasi va maxsus yo‘lakcha (pandus) tasvirlangan. Sariq pazl ichida ko‘zi ojiz va zaif imkoniyati cheklangan shaxslar jamiyatga qo‘shilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit – olti nuqtali maxsus Brayl yozuvi tasvirlangan. To‘q sariq pazl ichida aqlan zaif yoki o‘qishda imkoniyati cheklangan shaxslar jamiyatga qo‘shilishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit – ta’limni ifodalovchi kitob o‘qiyotgan shaxs tasvirlangan. Qizil pazl ichida uchta yonma-yon turgan shaxslar orqali jamiyat tasvirlagan.

Har bir pazl o‘ziga hos shakli va rangiga ega bo‘lib jamiyatimizda har hil turdag'i shaxslar borligini ifodalaydi va ular bir biri bilan qo‘shilgandagina barcha uchun to‘siqlardan holi va inklyuziv jamiyatni vujudga keltiriladi.

IV. RAMZDAN FOYDALANISH

4.1. Rangli tasvirda Birlashmaning ramzi ranglarning barcha tuslarida ishlatalishi mumkin.

4.2. Birlashma o‘z rasmiy hujjatlarida faqat belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan ramziy belgisidan foydalanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlaridan, xalqaro va chet el tashkilotlarining ramziy belgilaridan yoki ro‘yxatdan o‘tkazilmagan boshqa ramzlardan foydalanishi man etiladi.

4.3. Bayroqlar va vimpellarni ko‘tarish, emblemani o‘rnatish, shuningdek Birlashma ramzidan foydalanish qoidalari Birlashmaning rahbar organlari hamda mazkur Nizomga asosan belgilanadi. Birlashmaning tarkibiy bo‘linmalari o‘z faoliyatlarida faqat Birlashmaning rahbar organi tomonidan tasdiqlangan va tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan ramzlardan foydalanishlari mumkin.

V. RAMZNING JOYLASHUVI

5.1. Birlashmaning ramzini quyidagilarda joylashtirish mumkin:

- Birlashmaning rasmiy hujjatlari, blankalari, tarqatma materiallari va Birlashma faoliyatini ifodalovchi boshqa hujjatlarda;
- Birlashmaning rasmiy elektron veb-saytida;
- Birlashma xodimlari va jamoatchilar guvohnomalarida, beyjiklarida, tanishuv kartochkalarida, tashrifnomalar va boshqa atributlarida (ruchkalar, bloknotlar, taqvimlar, stend va bannerlar, broshuralar, eslatmalar va hokazolarda) joylashtirish mumkin.

VI. RAMZNING UCHINCHI SHAXSLAR TOMONIDAN ISHLATILISHI

6.1. Birlashmaning ramziy belgisini uchinchi shaxslar tomonidan ishlatalishi faqat Birlashma rahbar organi tomonidan berilgan yozma ruxsatnomaga asosan amalga oshiriladi.

6.2. Birlashmaning uchinchi shaxslar tomonidan qo‘llanadigan rasmiy belgisining tasviri, uning o‘lchamlaridan qat’iy nazar mazkur Nizomga ilova qilingan rangli yoki oq-qora tasvirga aniq mos kelishi lozim.

VII. RAMZIY BELGIGA QO'SHIMCHA VA O'ZGARTIRISH KIRITISH

7.1. Ramziy belgilarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, ramziy belgilardan foydalanishni to'xtatish yoki uni o'zgartirish faqat Birlashmaning rahbar organi – Kengash yoki boshqa rahbar organi yig'ilishida ochiq ovoz berish yo'li bilan hal etiladi.

VIII. RAMZIY BELGINING YURISDIKSIYASI

8.1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va Qonun ximoyasi ostida hisoblanadi.

8.2. Mazkur Nizomning tegishlicha ijro etilishi ustidan nazorat qilish majburiyatlari Birlashma rahbarining zimmasiga yuklatiladi.

8.3. Birlashma faoliyati to'xtatilgan yoki tugatilgan taqdirda ramziy belgidan foydalanish ham to'xtatiladi.

8.4. Nizomda nazarda tutilgan boshqa normalar qonun hujjatlariga asosan tartibga solinadi.

Birlashma raisi

Raximova M.A.